



MATNAZAR ABDULHAKIM VA XURSHID DAVRON SHE'RLARIDA IJODKOR OBRAZINING POETIK TALQINI: QIYOSIY TAHLIL

Maxmudov Sardorbek Esonali o'g'li,

Qo'qon universiteti Andijon filiali

O'zbek va rus filologiyasi kafedrası o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1775>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE	ANNOTATSIIYA/АННОТАЦИЯ
Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil	Ushbu maqola XX asr o'zbek she'riyatining ikki yirik vakili – Xurshid Davron (1952) va Matnazar Abdulhakim (1947-2013) ijodini qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot obyekti X.Davronning "Shoir haqida rivoyat" va M.Abdulhakimning "Darsdan so'ng" she'rlari tashkil etadi. Maqolada ushbu asarlar janr tabiati, obrazlar tizimi, lirik-epik kompozitsiyasi va poetik tili nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.
Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil	Tahlil jarayonida ikkala shoir adabiyotning maqsadi va ijodkoming jamiyatdagi o'rni masalasiga turlicha yondashgani aniqlandi: X.Davron romantik-idealistik, M.Abdulhakim esa realistik-xalqchil yo'nalishda o'z g'oyasini ifodalaydi. X.Davron she'rida shoir obrazi o'z yagona she'rlar to'plamini muhtoj bir insonni sovuqdan qutqarish uchun yoqib yuboradi – bu orqali adabiyotning insonparvarlik mohiyati va tirik dard bilan yashash falsafasi ilgari suriladi. M.Abdulhakim she'rida esa qishki tunning qorong'isida qashqirdan o'zini himoya qilishga majbur bo'lgan muallima obrazi orqali ilm, burch va sadoqat tushunchalari ulug'lanadi.
Jurnal soni: 19-A	Maqolada G.V.F.Gegel estetikasi, Chexov poetikasi va antropomorfizm kabi nazariy asoslardan foydalanilgan. Tahlil natijasida ikkala she'rda ham olov ramziy obraz sifatida ilm va vijdon timsoli ekanligi ko'rsatildi. Xulosa sifatida adabiyotning maqsadi – insonni o'z ulug'vorligi bilan yuzlashtirish, yovuzlikdan himoya qilish va abadiyat uchun ma'naviy xotira bunyod etish, deb belgilanadi.
Maqola raqami: 17	
KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	
qiyosiy tahlil, poetika, ijodkor obrazi, shoir, sovuq, muallima, adabiyot falsafasi, o'zbek she'riyati, qashqir, badiiyat, g'oya, olov, burch	

ABOUT THE PAPER	ANNOTATION
Accepted: 17 August 2026	This article is devoted to a comparative-typological analysis of the works of two prominent representatives of 20th-century Uzbek poetry – Xurshid Davron (1952) and Matnazar Abdulhakim (1947-2013). The objects of research are Khurshid Davron's poem "A Legend About a Poet" and Matnazar Abdulhakim's "After Class." The article examines these works from the perspectives of genre nature, imagery systems, lyric-epic composition, and poetic language.
Approved: 19 August 2026	The analysis reveals that the two poets approach the question of literature's purpose and the poet's role in society in distinctly different ways: Davron adopts a romantic-idealist orientation, while Abdulhakim follows a realistic-populist direction. In Davron's poem, the poet figure burns his only collection of verses to save a freezing stranger – thereby advancing a philosophy of humanism in literature and the idea that art must live alongside human suffering. In Abdulhakim's poem, the image of a female teacher forced to defend herself against a wolf on a dark winter night glorifies the values of knowledge, duty, and loyalty.
Volume: 19-A	The article draws on theoretical frameworks including G.W.F. Hegel's aesthetics, Chekhov's poetics, and anthropomorphism. The analysis demonstrates that in both poems, fire functions as a symbolic image representing enlightenment and conscience. The article concludes that the purpose of literature is to confront humanity with its own greatness, to protect people from evil, and to build spiritual memory for eternity.
Paper number: 17	
KEYWORDS	
comparative analysis, poetics, the image of the creative artist, poet, cold, female teacher, philosophy of literature, Uzbek poetry, wolf, artistry, idea, fire, duty	

Kirish

O'zbek adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida ijod qilgan shoirlar merosini qiyosiy o'rganish zamonaviy filologiya fanining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Xususan, bir davrda yashab ijod etgan, lekin turlicha badiiyati va g'oyasiga ega bo'lgan shoirlarning asarlarini komparativ metod asosida tahlil qilish ularning ijodiy qiyosiyasini, adabiy-estetik dunyoqarashini va she'riyat olamini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek she'riyatining taniqli vakillari Xurshid Davron (1952) va Matnazar Abdulhakim (1947-2013) asarlari muqoyasa qilinadi. Ikki shoirning "Shoir haqida rivoyat" va "Darsdan so'ng" she'rlari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan, chunki ular adabiyotning maqsadi, ijodkoming jamiyatdagi o'rni va she'riy so'zning ontologik vazifasi kabi umumestetik muammolarni o'zaro farqli, ammo bir-birini boyituvchi badiiy yechimlar orqali hal etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek adabiyotshunosligida ushbu ikki shoirning asarlari alohida-alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da (Buriyeva F.N. Hozirgi o'zbek she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi (Usmon Azim va Xurshid Davron ijodi misolida), Ernazarova G. Matnazar Abdulhakim she'riyatiga xos meditativlik), ularning she'rlarini sistemali qiyosiy tahlil qilish, adabiyot falsafasi va poetika nuqtayi nazaridan yaxlit ko'rib chiqish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Mazkur bo'shliqni qisman bo'lsada to'ldirish ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Gegelnig "Adabiyotning maqsadi" nomli maqolasi "Ruhning hayajonlanishi" bo'limida aytiladiki, "Shu bois, endi, biz san'atning

haqiqiy mazmuni nima? Nima sababdan san'at uni gavdalanitirishi kerak? degan savollar qo'yishimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili

XX asr o'zbek she'riyatida ijodkor shaxsi, adabiyotning ijtimoiy-estetik vazifasi, inson va jamiyat munosabatlari masalasi turli poetik hamda nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur maqolada Xurshid Davron va Matnazar Abdulhakim ijodini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishda, avvalo, badiiy adabiyotning estetik mohiyati va ijodkoming jamiyatdagi o'rmini nazariy jihatdan belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

G.V.F. Gegelnig "Estetika" asarida san'atning mohiyati, badiiy obraz va ijodkoming voqelikka munosabati masalalari falsafiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Gegel san'atni insonning ruhiy-ma'naviy olamini namoyon etuvchi shakl sifatida talqin qilib, unda insonning o'zligini anglash jarayoni muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariy qarashlar Xurshid Davronning "Shoir haqida rivoyat" she'ridagi shoir obrazini anglashda muhim metodologik asos bo'la oladi. Xususan, shoirning o'zining yagona she'rlar to'plamini muhtoj insonni sovuqdan qutqarish uchun yoqib yuborishi ijodkoming san'atdan ham ustun qo'yilgan insonparvarlik e'tiqodini ifodalaydi. Shu jihatdan Gegelnig san'at va inson ruhiyati o'rtasidagi munosabat haqidagi qarashlari mazkur obrazning falsafiy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi [1].

A.P. Chexov ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar esa badiiy asarda inson xarakterini ochish, detal va ramznig poetik funksiyasini aniqlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Chexov poetikasining muhim xususiyatlaridan

biri – katta ijtimoiy-ma'naviy mazmunni sodda hayotiy vaziyat, detal yoki ramziy harakat orqali ifodalashdir. Bu tamoyil Matnazar Abdulhakimning “Darsdan so'ng” she'rini tahlil qilishda ham muhimdir. Qishki tun, qorong'ulik, qashqir xavfi va muallimaning olov bilan bog'liq harakati kabi detallar oddiy voqea tasviri doirasidan chiqib, muallimaning kasbiy burchi, fidoyiligi va ma'naviy jasoratini ifodalovchi poetik vositalarga aylanadi. Shu ma'noda Chexov poetikasiga oid qarashlar she'rdagi hayotiy detalning umumlashma badiiy ma'no kasb etishini izohlash imkonini beradi [2].

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz va poetik tafakkur masalalarini o'rganishda Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” asari alohida ahamiyatga ega. Unda badiiy adabiyotning tabiati, obraz, xarakter, syujet, kompozitsiya va badiiy til kabi kategoriyalarning nazariy asoslari yoritiladi. Mazkur manba tadqiq etilayotgan ikki she'rning obrazlar tizimi va kompozitsion qurilishini qiyoslash uchun nazariy zamin yaratadi. Xurshid Davron she'rida shoir obrazi, Matnazar Abdulhakim asarida esa muallima obrazi markaziy poetik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki obraz muayyan kasb egasi sifatida emas, balki insonning ma'naviy mas'uliyati va jamiyat oldidagi burchini ifodalovchi umumlashma xarakter sifatida talqin qilinishi mumkin. Shuningdek, asarlardagi voqelik va obraz o'rtasidagi munosabatni aniqlashda badiiy obraz haqidagi nazariy qarashlar muhim metodologik asos vazifasini bajaradi [3].

Badiiy matndagi ramz, obraz va ko'chma ma'nolarning poetik xususiyatlarini o'rganishda Hotam Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” asari ham muhim manbalardan biridir. Tadqiqotchi badiiy tasvir vositalari, obrazlilik, ramziylik va poetik ifoda masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur nazariy qarashlar asosida Xurshid Davron va Matnazar Abdulhakim she'rlaridagi olov obrazining funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash mumkin. “Shoir haqida rivoyat”da olov shoirning inson hayotini asrash yo'lidagi fidoyiligini ko'rsatsa, “Darsdan so'ng”da u muallimaning qorong'ulik va xavf qarshisidagi jasoratini namoyon etadi. Demak, har ikki asarda olov oddiy fizik hodisa emas, balki ilm, vijdon, ma'naviy nur va insonparvarlikning ramziy ifodasi sifatida poetik mazmunni birlashtiruvchi obrazga aylanadi [4].

Umuman, mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xurshid Davron va Matnazar Abdulhakim she'rlarini qiyosiy-tipologik tadqiq etishda falsafiy-estetik, nazariy-poetik va obrazshunoslikka oid qarashlarni kompleks qo'llash maqsadga muvofiqdir. Gegel estetikasi asarlardagi inson va ma'naviyat munosabatini falsafiy jihatdan anglashga yordam bersa, Chexov poetikasi hayotiy detal va badiiy vaziyatning umumlashma ma'no hosil qilish xususiyatini tushuntiradi. O'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy tadqiqotlar esa obraz, kompozitsiya, poetik til va ramzlarning badiiy funksiyasini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur manbalar tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Bu haqda o'ylashimiz bilanoq, san'at inson ruhiyatida kechuvchi barcha narsalarni bizning tashqi va ichki tuyg'u, kechinmalarimizga qandaydir tarzda yetkazishi kerak, degan oddiy fikrga kelamiz"[7]. Xurshid Davron “Shoir haqida rivoyat” va Matnazar Abdulhakimning “Darsdan so'ng” nomli she'rlarini qiyosiy tahlil qilishda ayni san'atning maqsadi nima? degan savolning javobini topishga harakat qilamiz.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda Xurshid Davronning “Shoir haqida rivoyat” va Matnazar Abdulhakimning “Darsdan so'ng” she'rlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilandi. Tadqiqotning metodologik asosini badiiy asarni uning janriy tabiati, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi, poetik tili va ramziy-semantik xususiyatlari bilan uzviy aloqada tahlil qilish tamoyili tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi. Mazkur metod yordamida ikki shoir ijodidagi mushtarak va farqli poetik xususiyatlar aniqlanib, ularning adabiyotning maqsadi, ijodkorning jamiyatdagi o'rni, insonparvarlik, burch va ma'naviy mas'uliyat kabi masalalarga munosabati qiyoslandi. Xususan, Xurshid Davron she'ridagi shoir obrazi bilan Matnazar Abdulhakim asaridagi muallima obrazi o'rtasidagi tipologik yaqinlik va farqlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda tarixiy-tipologik yondashuv ham qo'llanilib, har ikki asarning XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyoti jarayonidagi o'rni hisobga olindi. Shoirning badiiy tafakkuri va poetik individualizmi davr adabiy jarayoni bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv orqali X.Davron ijodidagi romantik-idealistik ruh hamda M.Abdulhakim she'riyatidagi realistik-xalqchil yo'nalishning o'ziga xos jihatlarini belgilash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning yana bir muhim yo'nalishini obrazli-ramziy tahlil metodi tashkil etadi. Ushbu metod asosida shoir, muallima, qish, tun, qorong'ulik, qashqir va olov kabi obrazlarning bevosita hamda ko'chma ma'nolari aniqlanadi. Ayniqsa, ikki she'rda ham takrorlanuvchi olov obrazining poetik funksiyasi qiyosiy tahlil qilinib, uning ilm, vijdon,

ma'naviy nur, insonparvarlik va ezigulik tushunchalari bilan semantik aloqasi ochib beriladi.

Natijalar

X.Davron “Shoir haqida rivoyat” she'rida Velimir Xlebnikovni sovuq urush iskanjasidan och va yupun jang maydonidan chiqib kelayotgan shoir obrazi vositasida tasvirlaydi:

*Shoir qaytar edi darbadarlikdan,
Usti-boshi yupun, yalong'och edi.
Yanoqlari so'lgan, ko'zi kirtaygan.
Hech qayoqqa boqmasdi – juda och edi.* [6, 187-b]

Birinchi bandda shoir obrazi abgor holatda, charchagan, atrofdagi voqeliklarga boqishga majolsiz holda tasvirlanadi. Uning shu holga tushishiga, darbadar kezishiga sabab nima? bu savollarga keyingi banddan javob topamiz:

*Ichki urushlarning jazavasida,
Uylar yonar edi, uchardi o'qlar,
Odamlar o'lardi – o'qlar ostida,
Shoir bitar edi oydin qo'shiqlar.*

Yuqoridagi uch misrada kitobxon ko'z oldida butun voqelik aniqlashib, mavhumlik tumani ko'tariladi. To'rtinchi misradagi shoirning oydin qo'shiqlar bitishi esa porloq va osuda kunlarning kelishiga bo'lgan ishonch, o'tayotgan og'ir davrga nisbatan nafrat uyg'otadi va shoir bu iztiroblarini qog'ozga tushiradi.

Urushlar bo'ladi, lekin har bir urush komida qolgan hududlarda hayot davom etaveradi. U yerdagi odam nasli o'zligi va o'zini saqlab qolish uchun kurashadi. Shoir ham she'rlari bilan tirik. Uning uyg'otuvchilik vazifasi bor, abadiyat uchun tarix yaratish ma'suliyati bor. She'rdagi lirik personaj ham shu vazifa bilan yashayotgan inson. U barcha “oydin she'rlarini” oq yostiqlik jildiga solgancha ketib boradi. Keyingi banddagi tasvirlarda sovuqlik, xatar va o'lim ta'qibini ifodalovchi obrazlarni uchratamiz. Xurshid Davron voqelikni musavvirona tasvirlaydi. Misradan misraga o'tib borilar ekan kino kamerasi bir holatdan boshqa holatga o'tib, voqelikni tushanarli ko'rsatgani kabi shoir ham so'z orqali kamerachi vazifasini mahorat bilan bajaradi:

*Temir yo'l bekati, ag'anagan poezd,
Devorda o'q iz, yerda qon izi,
Faqat bir chekkada bukchaygan ayol,
Sovuqdan ko'karib, yoshlanib ko'zi,
Qish edi. Qor tushgan. Uh, desang go'yo,
Yerga tushgudayin muzlagan nafas,
Ayol qaltirardi – ko'zida ro'yo,
Ayol qaltirardi, chiqarmasdi sas.* [6]

So'ngi misralardagi ayol obrazi sovuqdan muzlab, o'lim bilan uni birgina qadam ajratib turganiga guvoh bo'lamiz. Shoir befarq o'tib keta oladimi? O'zining ochligi va abgor holati uni ketishga majbur qilib qo'ymaydimi? Agar befarq ketaversa san'atning mohiyati, shoirlik maqomi lirik personajga mos tusharmikan? Va bu savollarga javoban shoir yozadi:

*O'tib ketolmadi, yo'l bermas yurak,
Ayolning ko'zlari yo'l bermas sira.
U qaytdi ayolga beray deb ko'mak:
– Muzlab qolasan-ku, axir, hamshira!*

Ushbu bandda og'ir vaziyatlar odamni bir-biriga yaqinlashtirishi va mehribon qilib qo'yganini ko'ramiz. Vaholanki, ikki lirik personaj ham ojiz holda qolgan. Ochlik va nochorlikdan inson o'zini yuqorida saqlab qolishi uchun qalban yuksak bo'lmog'i lozim. Lekin hamshirani saqlab qolishga shoirida imkon bormi? Sovuq esa borgan sari kuchayib boradi:

*Nahot olib ketsa ayolni o'lim,
Nahot olib ketsa u begunohni?!
Shoir ko'kka cho'zdi madadsiz qo'lin,
Ko'makka chaqirib ko'kdan xudoni.
Ayolning ko'zlari osmonga qarab,
Unsiz jovdirardi g'arib va mungli,
Xudo eshitmadi. Osilib tushdi,
Osmonga cho'zilgan shoirning qo'li.*

Shoir nochor qoladi. Sovuq esa temiryo'l shpallarini yorib yuborgiday. Ayol esa o'lib bormoqda:

*Shunda u unitdi butun dunyoni,
Baxtini unutdi, dardni unutdi.
Yostiqlik jildi to'la yolg'iz bir nusxa
Bitilgan she'rlarin gurgutga tutdi.* [6]

Shoirning qarshisida ikki yo'l qoladi: She'rlarini abadiyat uchun asrab qolish (chunki u yagona nusxa edi) yoki o'lim bilan yuzma-yuz turgan inson uchun yoqish. Shoir esa yoqishni tanladi. Bu orqali shoirning hayot falsafasi va san'atning maqsadi lirik personajni to'g'ri nuqtaga yo'naltiradi. Nima sababdan bir nusxa she'rlarini yoqib yubordi? Kelgusi avlod uchun qoldirishi kerak emasmi? Biroq mana shu she'rlar birgina

insonni saqlab qolmasa, kelgusi avlod uchun qiymatga ega bo'ladimi?
...*She'rlar yonib ketdi.*
Va lekin ular
Tafti qoldi g'arib, so'lgan yuzida.
She'rlar yonib ketdi...
Ammo u endi
Porlaydi dunyoga boz qaytgan ko'zda.

Ijodkor uchun o'z asarlari farzandi kabi qadrlil bo'ladi. Mana shu qadrlil asaridan muhtoj bir inson uchun voz kecha olishi borinki, o'z turdoshlari uchun voz kechishi uning chin inson va ijodkor ekanligini ko'rsatadi. Chin shoir alqov va madhlar uchun yoki moddiy manfaat uchun ijod qilmaydi. Bu adabiyotning mohiyatiga yot tushuncha. Balki "San'at insonni ruhning o'z tafakkuri va g'oyasiga xos olijanoblighi, abadiylighi va haqiqatning ulug'vorligi, barcha muhim va ko'tarinki hodisalarni his etish va mushohada qilishdan zavqlantirmog'i" [7] uchun yaratiladi. Va mana shu hissiy kechinmalar og'ushida yashagan ijodkor shu hissiyotlarni singdirgan asarini o'zi yetisha olmagan ideal qarashlari uchun ham qurbon qiladi. Shoir o'sha kechinmalar qozonida qaytadan qaynab chiqadi.

Bekordir shoirlik – she'ru dostonga
Qalbini bag'ishlab yashab kelganlar,
Kulfat panjasida qolgan insonga
Qalbini bahsh eta olmasa agar.

Xurshid Davron adabiyotning falsafiy maqsadini mazkur misralarida yuqori pardasiga olib chiqadi. Shoir konsepsiyasiga ko'ra, adabiyotning maqsadi – muzey uchun ko'rgazma yaratish emas, balki tirik inson dardi bilan yashashdir. Agar san'at asari bitta insonning jismoniy yoki ruhiy qutqarilishiga xizmat qila olmasa, u hatto eng yuksak san'at darajasida yozilgan bo'lsa ham – arziyas qog'ozlardan iborat matindir. Shu jihatdan qaraganda Gegelning "San'at "insoniylikka xos barcha narsalar menga ham yot emas", degan mashhur hikmatni amalga oshirishi lozim. Uning maqsadini bizda mudrab yotgan rang-barang tuyg'u, mayl va ehtirolarga turtki berish, qalbni chulg'ash, inson ruhiyatining eng nozik va sirli nuqtalarida narsalarning komil yoki nokomil inson tomonidan his etish, qalbni junbushga keltiruvchi barcha narsalarning imkoniyat va xususiyatlarini aniqlashga da'vat qilishda ko'radilar" [7]. She'r yakunida shoir butun san'atga bo'lgan munosabatining inikosini qalamga oladi:

Shoir ketar edi, ko'zda baxtdan yosh,
Holsiz, madori yo'q hatto kulgani.
Olis-olislarda yonardi quyosh –
Yondirilgan buyuk she'rlar gulxani.

Yonayotgan quyoshning yondirilgan buyuk she'rlar gulxani deya tasvirlanishi kitobxon ko'z oldida adabiyotning qudratini his etishiga imkon yaratadi. Adabiyotning kompensatorlik [7, 56-b] funksiyasiga ko'ra adabiyot inson umriga qo'shimcha umr, inson hayotida ko'rman, his etmagan tuyg'ularni adabiy-badiiy asardan topishi, his etishi mumkin. Lirik personaj hisoblangan shoir obrazi ham hamshiraga shu imkonni beradi. Biroq she'rlarini o'qish bilan emas, balki ularni yoqib yuborish bilan. Va mana shu gulhan jamiyatning birgina a'zosisga bo'lsada, o'z nafini keltirganidan, uning ko'zlarida yangi umid gulhanini yoqa olganidan shoir taskin topadi.

O'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri Matnazar Abdulhakim ham "Darsdan so'ng" she'rida adabiyotning maqsadi va mohiyatiga o'ziga xos badiiyat va g'oya bilan javob beradi. Shoir qo'llagan obrazlar ham o'ziga xos: maktab, muallim, ma'sulyatsiz o'quvchi, yolg'izoyoq yo'l, qolishga qistagan hamkasiba ayol, qashqir, o'lim, aybdorlik hissi kabilar. Bu obrazlarning har biri she'rning g'oyasini to'laqonli tushinilishiga xizmat qiladi. She'r voqeaband lirikaga misol bo'ladi. She'rning birinchi bandi tematik asar kompozitsiyasi nuqtayi nazaridan kirish vazifasini o'taydi:

Kimdir koyidi chekkani uchun.
Tortib olib qo'ydi gugurtini ham.
Mashq daftarlarini yig'di-da, so'ngra
Bir-bir sanab ko'rdi. Yetti daftar kam. [5]

Birinchi bandeda tasvirlanayotgan voqelikda ma'lumki, o'z vazifasini bajarayotgan muallima tasvirlanmoqda. Ammo sinifda yetti o'quvchi daftar topshirmagan. Shu bilan lirik asar voqeligi rivojlanib boradi. "*Har gal shunday ahvol. Uyalmayisizmi?*" *Kelasiz o'qishmas, qilish uchun sayr. Bu safar ham ikki qo'y may turaman, Ertaga qolganlar topshirsinar. Xayr*".

Yuqorida berilgan ikki bandeda muallimani sinfning egasi (boshlig'i), jazolashga qodir personaj sifatida qabul qilish mumkin. U koyishi, gugurtini tortib olib qo'yishi bilan hukmdor. Ammo yuqoridagi ikki band va quyidagi bandlar bir-biriga kontrast holatni keltirib chiqaradi. Yuqoridagi bandlarda muallima irodali va boshqaruvchi sifatida tasvirlangan bo'lsa, quyidagi bandlarda u ojizlikka ega insonga aylanadi. Keyingi bandeda qish fasli, kun esa tezda qorangi'lashadi, erining kelmagani va qirdan yolg'iz o'tishligi muallimani havotirga va ikkilanish holatida qoldiradi. Eri kelmaganligi obraziga shoir qanday ramziy ma'no

yashiradi? O'tish yillaridagi o'qituvchiga bo'lgan munosabatlar, ularning huquqlari oyoq osti bo'lganligi, og'ir davrning achchiq xotirasi detal obraz orqali ko'rsatiladi, nazarimizda. *Hamkasb dugonasi qistovga tutib, "Tunab keting, – dedi. – Kech bo'lib qoldi" Ko'nmadi. Qo'ltiqlab mashq daftarlarni Uyga yolg'iz o'zi yayov yo'l oldi.* Yuqoridagi bandeda esa muallima qolishdan ko'ra ketishni ya'ni shaxsiy burch tanlovini qiladiki, bu tanlov she'rning tematik kompozitsiyasida voqelikni boshqa o'zanga burilib ketishiga sabab bo'ladi. Muallimaning shaxsiy ma'suliyati nimada? Uning ilm o'rgatishi ma'suliyat, farzandidan havotirlanishi ma'suliyat, oilasi uchun qirdan o'tib borishi yana bir ma'suliyat. Mana shu qismda ojiz qoldirilgan muallima obrazi, vaholanki, jamiyatning ziyoli – ilm ulashuvchi qatlamining ojiz holda qolgani ammo vijdoni buyirgan ma'suliyat uchun yo'lidan qaytmaganligi voqeligi tasvirlanadi. Quyidagi bandeda muallima ojizligi yanada cho'qissi tomon o'sib boradi:

Mudhish bir sharpani ilg'adi nogoh,
Razm solsa qashqir. Qilardi ta'qib,
Esladi yirtqichning qo'rqishin o'tdan,
Iziga bir daftar tashladi yoqib.

Ushbu qismda qashqir obrazining qo'shilishi lirik personaj taqdirini savol ostiga qo'yadi. Qashqir vahshiy va juda och obraz sifatida tasvirlanadi. Lekin muallima aqil yurituvchi o'laroq mashq daftarlaridan birini yoqib, qashqirni to'xtat turishga majbur qiladi. Esxilning "Zanjirband Prometey" tragediyasida titan hisoblangan Prometey qadimgi yunon tafakkurida Oliy Xudo deb hisoblangan Zevsdan odamlarga olvni o'g'irlab, elitib beradi. Zulmatda yashagan odamzod olov orqali turli ilmlarni o'zlashtiradilar. Ammo Prometey jazoga hukm qilinadi. She'r matnida kelgan olov ham ilm, jaholatni ketkazuvchi, uni ortda qolishga majbur qiluvchi obraz bo'lib keladi. Muallimaning harakatlari qashqirni ortga chekinishga majbur qiladi. Shu bandeda yana bir jihat borki, muallimaning olov yoqishi obrazi asarning birinchi bandi – gugurtini tortib olib qo'yishi bilan bevosita bog'liq. Chexov tili bilan aytganda "*Agar asarning birinchi qismida devorga mittiq osilgan bo'lsa, ikkinchi yoki uchinchi qismida u albatta otilishi (ishlatilishi) kerak. Aks holda, uni u yerga osib qo'yishning keragi yo'q*" [9]. Demak Matnazar Abdulhakim she'r matniga olingan obrazlar bilan yuqori badiiyatda ishlaganki, bu shoirning bahosi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Keyingi bandlarda omon topgan olov, ilolsiz sabr, tin olardi ikkov har daftarda bir kabi obrazlar borki, olov muallimaning tirikligini ta'minlab tursa, ilolsiz sabr qashqirga nisbatan qo'llanadi. Ya'ni shoir antropomorfizmdan foydalanib, bo'rining insondek xarakterda harakatlanayotganini tasvirlaydi. Biroq bu ilolsiz sabir yetti obrazga ham tegishli, ikkisi uchun ham "tirik qolmoq yo o'lmoq shudir masala" qabilida tematik kompozitsiya rivojlanishda davom etib boradi:

Yo'l uzoq, tun qaro, qashqir esa och,
Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat.
Uyga yaqin qolgan vaqtda tugadi
Muallimda daftar, qashqirda – toqat. [5]

Muhokama

Yuqorida kelayotgan uzoq yo'l, qaro tun, och qashqir obrazlari birlashib katta to'siqqa aylanadi. Muallima bir vaqtning o'zida makon, zamon va tabiiy zaruriyat bilan kurashadi. Ammo "*Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat*" va bilmagani uchun ham u oxirgi lahzalargacha taqib qilib boradi. Va bu obrazlar orqali insonning yovuzlik ustidan g'alabasi, borinki, g'alaba uchun kurashdan to'xtamayotgan inson obrazini yaratadi. Qashqir sadoqatni bilmaydi – lekin muallimada bu oliy tuyg'u qadriyat darajasida mavjud. Lirik personaj ayni shu jihatlari bilan yuksak inson sifatida taniladi. Gegel estetikasida bu moment – substansial kuchning o'zini namoyon qilishi: muallimaning substansial kuchi (sadoqat, burch) qashqirning substansial kuchidan (ochlik, instinkt) yuqori turadi. Muallimaning jisman o'limi hammadan ham daftar topshirmagan yetti o'quchining vijdon azobida qiynalishiga sabab bo'ladi. Ya'ni foja aybdori ayni yetti o'quvchi sifatida beriladi. Gegel falsafasida Mutlaq Ruhning taraqqiyoti – bu o'z-o'zini anglab borish jarayonidir. San'at ham shu jarayonning bir qismi. Shoir o'zini ham shu yetti o'quvchining qatorida sanaydi. Ya'ni millatiga xavf bo'lgan qashqirlardan omon saqlay olmayotganidan aybdorlik hissini tuyayotgan shoir obrazi. Gegel falsafasiga asoslanib yondashilganda M.Abdulhakim she'riyati kitobxonni o'z-o'zini anglab borish yo'lga solib qo'yadi. She'r yakunida

Men yaxshi bilaman, tumor qilmaydi,
Yozgan she'rlarimni oshiqlar.
Men yaxshi bilaman, qo'shiqlarim jo'n,
Bilaman, bular bir oddiy mashqlar.
Lekin... ketmakdasan kelajak sari
Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan.
O'zimcha asragim keladi seni
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan. [5]

Shoir buyuk ijodkor bo'lmasada, ammo yozg'ichlari millati va vatanini yovuz qashqirlar changalidan yo'l bo'yi yoqib omon qolishi uchun

yozayotganini, manzilga salomat borishligini aytadi. Shoir adabiyotning mohiyatini ayni shu jihatdan topadi: millatni uyg'otuvchi kuch, o'z-o'zini aglashga undovchi javhar o'laroq bu – buyuk so'zdir. Xurshid Davronda esa bu jihat shoir obrazi orqali ifodalanadiki, shoir o'z kasbining mohiyatini bir insonga yordam berishi orqali anglatadi. Ya'ni she'r – Ruhning o'ziga qaytish yo'li, insonning vijdoni bilan hisoblashidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ikki she'rni qiyosiy tahlili qilish natijasida aytish mumkinki, adabiyotning maqsadi – insonni o'z ulug'vorligi bilan yuzlashtirish, yovuzlikdan himoya qilish va abadiyot

uchun xotira bunyod etishdir. Ikki she'rda ham insonni olov bilan qutqarishga urinish bor. Ya'ni olov ramziy ma'noda ilm deb tahlil qilinsa to'g'ri yondashuv bo'ladi, nazarimizda. Xurshid Davronda she'ridagi lirik personaj hisoblangan shoirning she'rlari quyoshga ko'chgan olov bo'lsa, Matnazar Abdulhakim she'rida muallimani qisman omon qolishida vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak adabiyot shu gulhan, adabiyot bir ilim, adabiyot vijdonga tutilgan ko'zguki, birinchi she'rda mana shu olov hamshirani qutqarib qolasa, ikkinchi she'rda daftar topshirmagan o'quvchilarda vijdon azobini uyg'otadi. Bu azob esa insonni hayotda insondek yashashga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gegel G.V.F. Estetika: B 4 t. – M.: Искусство, 1968–1973.
2. Чудаков А.П. Поэтика Чехова. – М.: Наука, 1971.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Abdulhakim, M. Javzo tashrifi: she'rlar va dostonlar / M. Abdulhakim. – Toshkent: Sharq, 2008.
6. Davron, X. To'marisning ko'zlari: She'rlar va doston / X. Davron. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 128 b.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademyanashr, 2018. – 480 b.
8. Quronov D. Adabiyot va b. haqida (Ilmiy maqolalar to'plami). – Toshkent : Akademyanashr, 2019. – 142 b.
9. Xurshid Davron Bolalikning ovozi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B.187.
10. Хамдам У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 200 б.
11. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 264 б.
12. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/gegel-1770-1831-germaniya/gegel-estetika-parcha-h-manosini-anglatadi-shunday-tushuniladigan-estetika-yangi-fan-yoki-bo-lg-usi-falsafaning-dastlabki-ko-rinishlaridan-biri-sifatida-volf-maktabida-yuzaga-keldi-o-sha-davrda-germaniyada-ayniqsa-badiiy-asarlar-tasirida-tuyuladigan-yoqim>
13. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/matnazar-abdulkhakim-bedil-usmon-azim.html>
14. <https://hikmatlar.uz/quote/2379>